



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 316 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
<i>Xurramov Anvar Vafqulovich</i>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
<i>Olim Ziyoyev Toshpulatovich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</i>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
<i>Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</i>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
<i>Kushakova Nargiza Islambaevna</i>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
<i>Majitova Munisa Oybek qizi</i>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
<i>Normurodova Qunduz Tursun qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
<i>Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</i>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
<i>Po'latova Sitora Olimjonovna</i>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
<i>Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</i>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<i>Shomurotova Sh. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<i>Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</i>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<i>Набиев Абдулло Абдувохидович</i>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
<i>Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</i>	



Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy fazilatlarini shakllantirish	91
Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi	96
Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’limni tashkil etish metodikasi	101
Saydullayev Zafar Erkinovich	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili	104
Allanov Shuxrat Qilichovich	
“Harry Potter” asarining o‘zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari	108
Fayziyev Baxodir Baxshilloevich	
Maktabgacha ta’limda bolalar nutqini o‘stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish	112
Imamova Nilufar Zabiylulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari	116
Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash	119
Eshonqulova Ma’suda Habibovna	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta’minlovchi psixologik omillar	123
Islomova Ozoda Isomiddin qizi	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish metodologiyasi	127
Abdullayeva Maftuna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati	131
Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi	
STEAM asosida kollaborativ ta’lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish	135
Axmadova Malika	
Yosh sportchilarni sportga yo’naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida)	139
Xotamov Jaloliddin Xusniddin o‘g‘li	
Biologiyada amaliy tajribalar o‘tkazishning zamonaviy virtual yechimlari	143
Mirzayeva Nodira Abduxamidovna	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati	146
D. P. Xodiyeva, M. Sh. To‘rayeva	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida)	150
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi	
Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish	154
G‘. Yu. Eshmirzayev	
O‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta’limining o‘rni va o‘ziga xos jihatlari	157
Kamolova Nargiza Ibragimovna	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	161
Mapruza Embergenova	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili	167
Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi	
Bo‘lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o‘qitish haqida	171
Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich	
Bo‘lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari natijalari	177
Raximova Nigora Atakulovna	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘p ma’noli so‘zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
Xo‘jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna	
Pul qadriyatining o‘smirlik davrida shakllanishiga ta’sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili	184
Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari	189
<i>Yarmatova Sanobar Jo'rayevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar	193
<i>Norquvatova Diyora Davron qizi</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	197
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих	201
<i>Зохилов Нодирбек Улугбекович</i>	
Kimyo fanini o'qitishda muommali ta'lim metodining o'рни va amaliy ahamiyati	205
<i>Kultayev Kuzibay Kazakbayevich</i>	
Rolli o'yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni erta kasbga yo'naltirishning pedagogik shart-sharoitlari	209
<i>Niginabonu Fayzullayeva</i>	
Boshlang'ich sinflarda PIRLS va TIMSS talablariga mos ta'lim texnologiyalarini qo'llashning didaktik asoslari	214
<i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Mamedova Maxfuza Erkinovna, Omonova Gulandom Davlatovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida virtual laboratoriyalarni o'qitish	219
<i>Tilovova Turdixol Baratovna</i>	
Hosila va uning tadbirlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar	222
<i>Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diskursiv kompetensiyasini shakllantirish texnologiyalarini amaliyotda qo'llash usullari	228
<i>Dauletnazarova Ainura Kayirbaevna</i>	
O'quvchilar o'rtasida bullingni oldini olish va pedagogik-psixologik omillarni bartaraf etish yo'llari	233
<i>U. A. Alibayeva</i>	
Yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlari	236
<i>O. K. Kadambayeva</i>	
Bo'lajak logopedlar rinolaliyani og'ir nutq nuqsoni sifatida o'rganishda qo'llaniladigan topshiriqlarning ahamiyati	240
<i>Achilova Sevara Djasirkulovna</i>	
Tarjima mashqlari orqali nemis tili (DaF) darsida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish	243
<i>Musayeva Guzal Ne'matillayevna</i>	
O'tkir Rahmat she'rlari lingvopoetikasi	247
<i>Xoldarova Gulchehra Tajibayevna</i>	
Проблемы и тенденции развития грамматики русского языка	250
<i>Юлдашев Баходир Бекмуратович</i>	
O'smir taekvondochilarning qo'l-oyoq kuchining an'anaviy mashg'ulotlar davomida o'sish sur'ati	253
<i>A. X. Norov</i>	
Инновационные педагогические технологии в преподавании русского языка и проблемы повышения качества подготовки кадров	259
<i>Адилова Солияхон</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlari va imkoniyatlarini rivojlantirish	263
<i>Muminjonova Muhayyo G'ulomovna</i>	
Nutqning ijtimoiy-psixologik va lingvistik xususiyatlari	268
<i>Sh. I. Nurmatova, G. B. Xujamova</i>	
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini shakllantirish va o'quv materiallarining ahamiyati	271
<i>Abdullayeva Uljal'as Tulegen qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy pedagogik kompetensiyani aniqlash metodologiyasi	274
<i>D. O'. Yo'ldosheva, J. A. Jovlijev</i>	



Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga badiiy adabiyot vositasida ijtimoiy xulq madaniyati bilan tanishtirishning ahamiyati.....	278
Daminova Shoxista Farxodovna	
Using the Method of Mnemonics in Teaching English Idioms: Enhancing Retention and Comprehension in EFL Learners	281
Dusmamadova Gulsum Shukhratovna	
Sun'iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan matematika ta'limining o'quvchilar natijalariga ta'siri	284
Jurayeva Gulshanoy Turdiyevna	
Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda axborot oqimlarining ijobiy ta'sirlari.....	288
Karimova Umida Alijon qizi	
Viruslar replikasiyasining molekulyar asoslari va uni o'qitishda "Case-study" metodining samaradorligi.....	293
O'. E. Xo'janazarov, B. B. Ishmo'minov, M. Fayzieva, M. Xayitmuratova	
Psixodiagnostik metodikalar asosida talabalarning xarakter aksentuatsiyasining gender farqlarini o'rganish	298
Sh. Allanazarova, R. Janabaeva	
"Muhofazaga olingan hududlar" modulidan talabalarning bilimni nazorat qilishga mo'ljallangan nostandart testlardan foydalanish metodikasi	301
Saidmuratov Shoxid Xusanovich, Ishmo'minov Bobur Botir o'g'li, Abduvohidova Madina Ilhomjon qizi, Matkomilova Feruza Xasan qizi	
Ergonomik yondashuv asosida registrator ofisi ish jarayonlarini modellashtirish va takomillashtirish	307
To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li	
Sport turlarini tasniflash va sport mashg'ulotlarini kompleks monitoring qilishning ilmiy-metodologik asoslari	311
Ilhomjon Axmedovich Tursunaliyev	

YOSH AVLODNING MILLIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

O. K. Kadambayeva

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya: Yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining o'рни, ahamiyati hamda uning pedagogik-psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Xalq pedagogikasida mujassam bo'lgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va og'zaki ijod namunalari orqali shaxs ma'naviyatini yuksaltirish, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosdan samarali foydalanishning psixologik asoslari hamda yoshlar ongida milliy g'urur va ma'naviy barkamollikni shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, xalq pedagogikasi, pedagogik mexanizm, psixologik mexanizm, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, yosh avlod, shaxs kamoloti, vatanparvarlik, milliy ong.

Abstract: A scientific and theoretical analysis is presented of the role and significance of folk pedagogy in shaping the national upbringing of the younger generation, as well as its pedagogical and psychological mechanisms. The importance of national values, customs, traditions, and examples of oral folklore embodied in folk pedagogy in enhancing an individual's spiritual development is highlighted. The formation of national identity, patriotism, and high moral qualities in youth through these means is also examined. Furthermore, the psychological foundations for the effective use of national heritage in the educational process, as well as the mechanisms for fostering national pride and spiritual maturity among young people, are revealed.

Key words: national upbringing, folk pedagogy, pedagogical mechanism, psychological mechanism, spirituality, national values, customs, traditions, younger generation, personal development, patriotism, national identity.

Аннотация: Научно-теоретически анализируются роль и значение народной педагогики в формировании национального воспитания молодого поколения, а также её педагогико-психологические механизмы. Раскрывается значение национальных ценностей, обычаев, традиций и образцов устного народного творчества, воплощённых в народной педагогике, в повышении духовности личности. Также рассматриваются вопросы формирования у молодёжи национального самосознания, чувства патриотизма и высоких нравственных качеств на основе данных средств. Освещаются психологические основы эффективного использования национального наследия в образовательном процессе, а также механизмы формирования у молодёжи национальной гордости и духовной зрелости.

Ключевые слова: национальное воспитание, народная педагогика, педагогический механизм, психологический механизм, духовность, национальные ценности, обычаи, традиции, молодое поколение, развитие личности, патриотизм, национальное самосознание.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi ^[1]. Jamiyat taraqqiyoti bevosita ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va vatanparvar shaxslarni voyaga yetkazish bilan bog'liq ^[2]. Shu nuqtai nazardan, xalq pedagogikasi yoshlar tarbiyasida muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi ^[3].

Bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot oqimining keskin ortishi, madaniyatsiz omillarning yoshlar ongiga ta'siri kuchayib borayotgan bir davrda ularni milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barkamollik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash zarurati yanada ortmoqda. Bu jarayonda xalq pedagogikasi boy meros sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.



Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan aksariyat chiqishlarida "Har bir ishning ilmi bor", deb ta'kidlaydilar. Tarbiyaning ham ilmi bor. Uning nomi – pedagogika va bugungi kunda psixologiya fani predmetiga ham aylanib ulgirdi. Ayniqsa, farzand tarbiyasi masalasida ota-onalarning bilimlari puxta, amaliy bo'lishi millatimiz uchun hayot-mamot masalasi hisoblanadi. Zero, bu davrda 20 yildan keyin keladigan avlod qanday bo'lishi hal qilinadi. Shuningdek, milliy tarbiya masalasiga qaratilgan tadqiqotlarimiz va davlatimiz rahbarining tarbiya masalasiga bag'ishlangan chiqishlari, nutqlari hamda asarlarida milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi aniqlandi. Ya'ni, tarbiya orqali milliy o'zlikni anglash mumkin, milliy o'zlikni anglash orqali esa shaxs milliy xarakteri, milliy qadriyatlarini va milliy an'analarini bilish mumkin.

Xalq pedagogikasi – bu xalqning asrlar davomida to'plagan tarbiyaviy tajribasi, urf-odatlarini, an'analarini, marosimlarini, og'zaki ijodi, pand-nasihatlari va axloqiy qarashlari majmuidir. Ushbu pedagogik meros yosh avlod shaxsini shakllantirishda tabiiy, hayotiy va psixologik jihatdan samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalanish yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarga hurmatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar hamda og'zaki ijod namunalari orqali yosh avlodni axloqiy va ma'naviy jihatdan kamol toptirishga xizmat qilib kelgan ^[4]. Unda xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy me'yorlari va tarbiyaviy qarashlari mujassam bo'lib, ular shaxsning ruhiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi ^[5]. Shu bois, xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganish hamda ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi ^[6].

Hozirgi davrda yoshlar ongida milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, ma'naviy bo'shliq hamda turli g'oyaviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitetning yetarli shakllanmaganligi kuzatilmoqda ^[7]. Bu holat milliy tarbiya tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Xalq pedagogikasi esa yoshlarning ongiga tabiiy va ta'sirchan vositalar orqali ijobiy fazilatlarini singdirish imkoniyatiga ega ^[8].

Mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- milliy tarbiya jarayonida xalq pedagogikasi merosidan samarali foydalanish zarurati;
- yoshlar ongida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash ehtiyoji;
- ta'lim tizimida pedagogik va psixologik mexanizmlarni uyg'un qo'llash talabi;
- globallashtirish sharoitida milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish zarurati.

Shu bois, yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlarini tadqiq etish ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirish hamda xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Milliy tarbiya va ma'naviyat masalalari I.A. Karimovning asarlarida keng yoritilib, unda yoshlar ongida milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati asoslab berilgan.

Pedagogika nazariyasida milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish masalalari M.X. To'xtaxodjayeve, O.U. Xasanboyeva kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xalq pedagogikasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy ildizlari va tarbiyaviy imkoniyatlari B.R. Qodirov hamda boshqa tadqiqotchilar ishlarida ochib berilgan.

Psixologik nuqtai nazardan esa shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniy omillarning o'rnini E.G'. G'oziyev, Z.T. Nishonova asarlarida yoritilgan. Ular yoshlar ongida qadriyatlar tizimini shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik mexanizmlarini asoslab berganlar.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida milliy tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari B.X. Raximov va boshqa olimlar tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda xalq pedagogikasining aynan pedagogik-psixologik mexanizmlarini kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganish yetarli darajada yoritilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavzusi ilmiy yangilik kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda tizimli yondashuv tashkil etadi.

Metodologik yondashuv sifatida shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimining shakllanishi va faoliyat nazariyasi tamoyillari asos qilib olindi. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodi namunalari (maqol, matal, ertak, doston va marosimlar) tarbiyaviy ta'siri pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilindi.

Natijada yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlarini aniqlash va ularni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish yo'llari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida xalq pedagogikasining yosh avlod milliy tarbiyasini shakllantirishdagi pedagogik-psixologik mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilindi va quyidagi natijalarga erishildi:

1. **Qadriyatlar internalizatsiyasi mexanizmi** – xalq og'zaki ijodi (maqol, matal, ertak, dostonlar) orqali yoshlar ongiga milliy va axloqiy me'yorlar bosqichma-bosqich singdirilishi aniqlandi. Bu jarayonda emotsional ta'sir va identifikatsiya muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ldi.
2. **Ijtimoiy o'rnak (model) mexanizmi** – xalq qahramonlari, tarixiy shaxslar va ideal obrazlar misolida yoshlar ongida vatanparvarlik, jasorat, halollik kabi fazilatlar shakllanishi kuzatildi.
3. **An'ana va marosimlar orqali ijtimoiylashuv** – milliy urf-odat va marosimlarda ishtirok etish yoshlarning ijtimoiy tajriba orttirishiga, jamoaviylik va mas'uliyat hissining rivojlanishiga xizmat qilishi aniqlandi.
4. **Refleksiya va o'zlikni anglash mexanizmi** – xalq pedagogikasi namunalari asosida olib borilgan suhbat va muhokamalar yoshlarning milliy o'zligini anglash darajasini oshirishi isbotlandi.
5. **Integrativ yondashuv samaradorligi** – xalq pedagogikasi elementlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim jarayonida yuqori motivatsiya va faollikni ta'minlashi aniqlangan.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, xalq pedagogikasiga asoslangan tarbiyaviy ishlar yoshlarning ma'naviy barkamolligi, milliy g'ururi va ijtimoiy faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olingan natijalar mavjud pedagogik va psixologik nazariyalar bilan uyg'unlikda tahlil qilindi. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy ta'siri shaxs rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, qadriyatlar tizimining shakllanishida emotsional-ta'sirchan vositalarning ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama jarayonida quyidagi jihatlar alohida ta'kidlandiki: xalq pedagogikasi vositalarini faqat an'anaviy shaklda emas, balki interaktiv metodlar asosida qo'llash zarurati; tarbiyaviy jarayonda oila, maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish ehtiyoji; globallashuv sharoitida milliy identitetni mustahkamlashda xalq pedagogikasining himoya (immunitet) mexanizmi sifatidagi roli; yoshlarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish zaruriyati.

Shuningdek, ayrim cheklovlar ham aniqlandi. Xalq pedagogikasi namunalari barcha yosh toifalari uchun bir xil darajada samarali bo'lmasligi mumkin va ularni zamonaviy yoshlar ehtiyojlariga moslashtirish talab etiladi.

Mazkur ishda xalq pedagogikasi nazariyasi va uning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinadi. Xalq pedagogikasi – bu xalq tajribasiga asoslangan tarbiya va ta'lim jarayonlari tizimi bo'lib, uning g'oyalari avlodlar davomida shakllanib, turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda samarali qo'llanilgan. Ishda xalq pedagogikasi nazariyasining asosiy tamoyillari, tarbiyaning mazmuni va usullari hamda psixologiya fanidan olingan bilimlar bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy pedagogik tajribaning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va uning bola shaxsini rivojlantirishdagi roli ko'rsatib berilgan.¹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, tadqiqot natijalari xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlari yosh avlod milliy tarbiyasini shakllantirishda muhim metodologik va amaliy asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi.

Mazkur tadqiqot natijalari yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xalq pedagogikasi asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va og'zaki ijod namunalari orqali shaxs ma'naviyatini boyitish, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qadriyatlar internalizatsiyasi, ijtimoiy o'rnak (model) asosida tarbiya, an'ana va marosimlar orqali ijtimoiylashuv, refleksiya hamda o'zlikni anglash mexanizmlari yoshlar ongida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik ta'sirning psixologik jihatlarini – emotsional ta'sirchanlik, identifikatsiya, motivatsiya va faol ishtirok omillari yuqori natijadorlikni ta'minlaydi.

1 X.E.Tuychiyev, O.K. Kadambayeva, XALQ PEDAGOGIKASI NAZARIYASI VA UNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI, RAQAMLI JAMIYAT VA PSIXOLOGIK SALOMATLIK: MUAMMO VA YECHIMLAR mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi: Vol. 1 No. 1 (2026)



Shuningdek, xalq pedagogikasi elementlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, yoshlarni globallashtirish sharoitida mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish hamda ularning ma'naviy barkamolligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlarini tizimli va ilmiy asosda qo'llash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar milliy tarbiya samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. To'xtaxodjayeva M.X. Pedagogika nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.
3. Qodirov B.R. Xalq pedagogikasi asoslari. – T.: Fan, 2005.
4. Safarova R. O'zbek xalq og'zaki ijodi va tarbiya masalalari. – T.: Fan, 2009.
5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2012.
6. Nishonova Z.T. Ta'lim va tarbiya psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 2011.
7. Yuldashev J.G'. Yoshlar ma'naviyati va mafkuraviy immunitet. – T.: Ma'naviyat, 2015.
8. Xasanboyeva O.U. Pedagogika tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2013.
9. Abdullayeva Sh.A. Milliy tarbiya nazariyasi. – T.: Tafakkur, 2016.
10. Akbarov M. Xalq pedagogikasi: nazariya va amaliyot. – T.: O'zbekiston universiteti nashriyoti, 2020.
11. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001.
12. Борисова Е.М. Professional self-determination: personal aspect: Doctoral dissertation. – 1995.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.